




Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



# Zarafshon

2024-yil 17-sentabr, seshanba,

106 (23.983)-son

KUN  
HIKMATI

Bolani musiqa  
eshitishga, ijro  
etishga jaib qilish  
tarbiyaning teng  
yarmidir

[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz)



<https://www.facebook.com/zarnews.uz>



@zarnews\_uz



[https://twitter.com/zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)



↓ Tashrif

## ISHONCH VA HURMATGA ASOSLANGAN HAMKORLIK

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binan Germaniya Federativ Respublikasi Federal Kansleri Olaf Shols 15-16-sentabr kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'ldi.

Tashrifning asosiy tadbirlari Samarqand shahridagi Kongress markazida o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Germaniya Federativ Respublikasi Federal Kansleri Olaf Shols yuzma-yuz muloqot qildilar. Ikki davlat o'rtafigi hamkorlikni rivojlantirish masalalari delegatsiyalar ishtirokida kengaytirilgan tarkibdagi uchrashevda atroficha muhokama qilindi.

Muzokalar yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Germaniya Federativ Respublikasi Federal Kansleri Olaf Shols Qo'shma deklaratysiyan qabul qildilar. Shuningdek, ikki tomonlarga 8 ta hujat, jumladan, migratsiya va mobillik sohasida har tomonlarga sherlik to'g'risida hukumatlararo bitim, o'ta muhim minerallar sohasidagi hamkorlik to'g'risida qo'shma deklaratysiya, transport sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi.

Davlatimiz rahbari va Germaniya Kansleri 16-sentabr kuni ikki mamlakatning yetakchi kompaniya va banklari vakillari bilan uchrashev o'tkazildilar.

Davlatimiz rahbari uchrashev ishtirokchilarini samimiy qutlab, tadbir tarixiy Samarqand shahrida o'tkazilayotgani ramziy ma'noga ega ekanini ta'kidladi.

Kecha bo'lib o'tgan oly darajadagi samarali muzokalar yakunlariga yuksak baho berildi. Ularda Yangi O'zbekiston

taraqqiyotining iqtisodiyot tarmoqlarini chuquq transformatsiya va modernizatsiya qilish bo'yicha asosiy ustuvor yo'nalishlari qo'llab-quvvatlangani alohida qayd etildi.

Germaniyaning yetakchi kompaniya va banklari bilan Sanoat va texnologik sherkilik bo'yicha qabul qilingan strategik dastur doirasida qo'shma investitsiya loyihibarli va savdo shartnomalarini qo'llab-quvvatlash hamda jadallashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish to'g'risidagi kelishuvlarga erishilgani uchrashevning asosiy natijasi bo'lgani ta'kidlandi.

O'zbekiston va Germaniya ishbilarmo doilarining faol va amaly ishtirokida o'zaro manfaati sheriqlikning ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi. Bu "yashil energetika", kimyo sanoati, "yashil vodorod" ishlab chiqarish, mashinasozlik, elektrotexnika, to'qimachilik, farmatsevtika sanoati va boshqa sohalarda sanoat kooperatsiyasini nazarida tutadi.

Bundan tashqari, o'ta muhim mineral resurslar konlari o'zlashtirish va ularni chuquq qayta ishlash, keyinchalik Germaniya va uchinchi mamlakatlar bozorlariga eksport qilish uchun yuqori qo'shilgan qiymatlari mahsulotlar ishlab chiqarishda Germaniya kompaniyalarining ishtiroki istiqboli yo'nalish sifatida belgilandi.

Bundan tashqari, o'ta muhim mineral resurslar konlari o'zlashtirish va ularni chuquq qayta ishlash, keyinchalik Germaniya va uchinchi mamlakatlar bozorlariga eksport qilish uchun yuqori qo'shilgan qiymatlari mahsulotlar ishlab chiqarishda Germaniya kompaniyalarining ishtiroki istiqboli yo'nalish sifatida belgilandi.

Energetika, transport-kommunikatsiya, kommunal va turizm infratuzilmasi obyektlarini modernizatsiya qilish, sanatoat va xizmat ko'sratish korxonalarini xususiyashtirish dasturida ishtirok etish, shuningdek, mamlakatimizda sog'lioni sadlash, ta'lim va ekologiya sohalarida ijtimoiy ahamiyatiga ega loyihibarli amalga oshirish ham hamkorlikning asosiy yo'nalishlariga kiradi.

Uchrashevda Prezidentimiz Germaniya biznesining O'zbekistondagi yirik kompaniyalar bilan yaqin hamkorligini yo'lg'a qo'yish muhimligiga alohida e'tibor qaratdi.

Shu ma'noda, qurilish materiallari ishlab chiqarish, metallurgiya, energetika, kimyo, transport infratuzilmasi, qishloq xo'jaligi va mashinasozlik, tibbiyat va boshqa sohalarda yangi tashabbuslarni ishlab chiqish va qo'shma loyihibarli amalga oshirishni davom ettirish kerakligi ta'kidlandi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Germaniya Federativ Respublikasi Kansleri qo'shma Boshqaruvu kadrlarini tayyorlash maktabining oshilishiga bag'ishlangan marosimda ishtirok etdilar.

Loyha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvu akademiyasi va Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan Xannas Zaydel jam'armasi hamda Bavariya davlat boshqaruvu maktabi bilan hamkorlikda amalga oshirildi.

Germaniya Federal Kansleri Olaf Shols Samarqandagi Xalqaro turizm akademiyasi faoliyatini bilan ham tanishdi.

O'ZA.

## «Prezidentga va'da berdim»

↓ E'tirof

Kubaro Hakimova 2002-yil Samarqand shahrida tug'ilgan. 2018-yildan buyon O'zbekiston para yengil atletika terma jamoasi a'zosi. Musobaqa-larda F41 klassida ishtirok etadi. «Xanchjou-2022» Para Osiyo o'yinlari da oltin hamda 2023-yil Parijda bo'lib o'tgan jahon championatida kumush medalga sazovor bo'lgan.



Kubaro yaqinda Fransiya poytaxti Parij shahrida o'tkazilgan XVII yozgi Paralimpiya o'yinlarida para yengil atletika bo'yicha ayollar o'rtafigi F41 klassida yadro uloqtirish bo'yicha 10,36 metr natija qayd etib, kumush medalni qo'lg'a kiritdi.

Davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan, kumush medalni qo'lg'a kiritgan sportchilarga 100 ming AQSh dollari, «BYD Song Plus EV Champion» avtomobilini karta berildi.

Musobaqadan so'ng viloyat hokimligi mas'ulilar va jamoatchilik vakillari Kubaro Hakimovani Samarqanda tantanali kutib oldi. Prezident sovg'asi – «BYD Song Plus EV Champion» avtomashinasida kelgan championoni o'zi tug'ilib o'sgan ko'hma kentda yurdoshlarimiz olqishlar bilan qarshiladi. Kubaroning oila a'zolari, ustozlariga viloyat hokimining tashakkurnomasi va qimmatbaho sovg'alarini topshirildi.

Prezidentimizning joriy yil 12-sentabrdagi «Parij shahrida bo'lib o'tgan XVII yozgi Paralimpiya o'yinlarida yuksak natijalariga erishgan sportchi va murabbiylardan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmoniga ko'ra, Kubaro Hakimova «O'zbekiston Respublikasi da xizmat ko'sratgan sportchi» faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

- Yoshligimdan sportga qiziqaman, - deydi

Kubaro Hakimova. – Bundan oldin besh yil dzyudo bilan shug'ullanman. Keyinchalik yengil atletikaga qiziqishim oshdi va mamlakat championatlarida, nufuzli musobaqlarda faxrli o'rinni qo'lg'a kiritib, terma jamoaga qabul qilinadi. O'tgan yil Parijda o'tkazilgan jahon championatida kumush medalni qo'lg'a kiritganimda, Paralimpiya o'yinlarida oltin medal olishni niyat qilgandim. Lekin Parijdagidagi musobaqalar oson bo'limadi, chunki raqiblarim orasida Osiyo, jahon championati va olimpiada ishtirokchilar bor edi. Shunga qaramay, kumush

medalga sazovor bo'ldim. Bu – faoliyatimdagi eng katta yutuqlarimidan biri. Buning uchun meni qo'llab-quvvatlab turgan ota-onamga, xalqimizga, Yurtboshimizga rahmat. Bildirilgan ishonchni oqlab, yurtimiza yorug' yuz bilan qaytdim. Ayniqsa, bu natijam Yurtboshimiz tomonidan e'tirof etilgani, ya'ni «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'sratgan sportchi» faxriy unvonining berilishi menga shijoat, kuchg'ayrat bag'ishladi. Prezidentimiz qo'llilaridan bunday yuksak mukofotni olar ekanman, kelgisida Paralimpiya o'yinlarida, Osiyo va jahon championatlarida oltin medalni qo'lg'a kiritib, jahon arenalarida yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarishga va'da berdim.

F.RO'ZIBOYEV.

## INDALOSINI AYTGANDA...

Abduxalil MAVRULOV,  
tarix fanlari doktori, professor:

- Ba'zilar "Bugun bizga kim ham hujum qilardi, tahdid qani?", deyishadi. Bu savloni berganlar aslida uzoq tariximizni bilmaydiganlar yoki bilit turib undan xulosa chiqara olmaydiganlar yoxud Vatan taqdirdiga befarq kishilardir.

Jomboy tumanida ma'rifat-parvar Saidahmad Siddiqiy – Ajziy tavalludining 160 yilligiga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi.

Jomboy tumanı hokimligi va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi hamkorligida tashkil etilgan tadbir tumandagi muqaddas qadamjo - Imom Shamsul-a'imma Abdulaziz ibn Ahmad - Halvoyi ota maqbarasini ziyorat qilish bilan boshlandi.

"Saidahmad Siddiqiy – Ajziy va uning adabiy merosi" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumanda qatnashgan Oliy Majlis Senati a'zosi F.Toshev, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi rahbari T.Tugalov, abadiyotshunos olma, professor D.Salohiy va boshqalar jadid namoyandasidagi Ajziy hayoti va ijodi haqidagi so'z yuritildi.

- Siddiqiy o'qituvchilik qilgan hamda vaqtli matbuot nashrлarida faol ishtirok

## Pomidor sayli

dehqon va tadbirkor manfaatlarini birlashtirdi

Viloyat hokimligi tashabbusi bilan Bulung'ur tumani Fozil Yo'Idosh mahallasida pomidor sayli o'tkazildi. Viloyatimizda ilk bor o'tkazilgan mazkur tadbir boshqa ko'rgazmalardan farqli ravishda yetishtiruvchi va qayta ishlovchilarining muloqot qilish, tomorqachilarining esa o'zaro tajriba almashishi uchun qulay imkoniyat yaratdi. Sayda har bir tuman uchun alohida pavilon ajratildi. Qishloq xo'jalik texnikalari, issiqxonalar uchun mini texnikalari, ilmiy tadqiqot markazlari va agrar sohoga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarining ilmiy ishlamlari, yangi navlar, ekish, parvarishlash, hosildorlikni oshirishdagi innovatsion yechimlar taqdimot qilindi.

Dastlab tumanning Fozil Yo'Idosh mahallasida tadbirkorlar va hunarmandlar markazi, mahalla binosi, IT markaz, kutubxonalarining oshilish marosimlari o'tkazildi. Bu yerda mahalla yettiligi uchun alohida xonalardan, axborot texnologiyalarini o'rganish istagidagi yoshlar uchun kompyuterlar, kitoblar va elektron kutubxona mavjud.



mussasalari o'z ishlanma va tadqiqotlarini taqdim etishdi.

- Bu tadbirda yetishtiruvchi, saqlovchi, qayta ishlovchi eksportyor – barchasi jam bo'lgani e'tibori, - deydi Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti rektori Shavkat Hasanov. – Bu esa mahsulot yetishtirishdan iste'molgacha bo'lgan jarayonni to'liq qamrab oladi. Institutimiz olimlari pomidorni iqligining mos navlari, urug'ni to'g'ri tanlash, ekish texnologiyasi, hosildorlik oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan maslahat va tavsilalarini berishmoqda. Kartoshka, pomidor va boshqa o'simliklar kasalliklariga qarshi kurashish va qayta ishlash borasida 20 ga yaqin yangi ishlanmalarini taqdim etdik. Bundan tashqari, kasalliklarga qarshi biologik va kimyoviy usulda kurashish samaradorligiga ham e'tibor qaratilmoqda.

Sayl davomida "Eng yaxshi bezatilgan pavilon", "Eng ko'p pomidor yetishtiruvchi", "Eng yaxshi ilmiy ishlanma", "Eng namunalni qayta ishlovchi tashkilot" nom-inatsiyalar bo'yicha tashqari yuritgan bo'lsa, hozir-

da ularning soni 22 taga yetgan. – Pomidor saylining ham aynan Fozil Yo'Idosh hududida o'tkazilayotganligiga sabab shu massiv pomidor yetishtirishga ixtisoslashgan, - deydi tuman hokimining o'rinosbasida Azizbek Bo'riboyev. - Qolaversa, yaqinda bu yerda yetishtiruvchi va xardorni bog'laydigan bozor paydo bo'ldi. Hudud qo'shni Jizzax viloyatiga yaqin bo'lganligi boisi u yerdagi dehqonlar, tomorqachi va fermerlar ham o'zlarini yetishtirgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini shu yerda sotish imkoniyati yaratildi. Bu sayl viloyatimiz tumanlarining agrorurizm salohiyatini namoyish etishga ham qaratilgan.

Har qanday dehqonchilik yoki mehnat ilm bilan boyitilmasa, kutilgan natijaga erishish mushkul bo'ldi. Shu bois saylga ilmiy tadqiqot markazlari va viloyatdagi agrar sohaga ixtisoslashgan oliy ta'lim

etdik va eng ko'p mahsulot bilan qatnashgan tuman sifatida e'tirof etildi.

Erta tongda boshlangan pomidor sayli kechgacha davom etdi. Tadbir davomida viloyatimiz va poytaxtdan kelgan xonandalari, so'z ustalarli, baxshilar va raqs jamoalarini o'z chiqishlari bilan tadbirga fayz bag'ishladi. Viloyatimizda har yili 15-sentabr kuni Pomidor saylini o'tkazish tashabbusi bildirildi.

O'ktam XUDOYBERDIYEV, Baxtiyor MUSTANOV (surat).

## 120 yil avval Jomboyda maktab ochgan alloma



Qatnashchilar mahalladagi 1250 yillik

chinor soyasida ma'rifat, ijod haqida suhbatlashdi.

To'iqin SIDDIQOV, Baxtiyor MUSTANOV (surat).

**Munosabat****Arablar mayiz  
yemaganmi?**

Qishloq xo'jalik mahsulotlari qayta ishlash, saqlash va eksport qilish faoliyat bilan shug'ullanamiz. 2016-yilda Dubayda xalqaro oziq-ovqat ko'rgazmasi bo'layotganini eshitib qoldim va tavakkal qilib bir savat mayizni oldim-u, Dubayga jo'namdim. U yerda biz uchun hech qanday joy ham ajratilmagan, bior kishi taklif ham qilmagandi. Buning ustiga, ularning tilini ham tushunmayman. Yaxshiyam afg'on tanishlarim bor ekan, ularning yoniga borib, bir savat mayizni qo'ydim. Arablar kelib, "Bu nima?", deb so'rashdi. Tiliga tushunmayman, qanday javob qaytarishni bilmayman. Imo-ishora bilan yenglar deya bir necha dona mayiz berdim. Besh-olti qadam yurdiyu, mayizing ta'mini bilib ortiga qaytdi, so'rab-surishtirgach, biz bilan doimiy yetkazib berish bo'yicha shartnomha tuzdi.

Tadbirkorlik bilan shug'ullana boshlaganimaga qariyb 20 yil bo'ldi, ammo soha subyektlari uchun hozirgidek keng sharoit yaratilganini ko'rmaganman. Misol uchun, joriy yilning o'zida bir necha marotaba Xitoya borib keldim. Guanjou shahridagi ko'rgazmaga borganimda Vatanimiz bayrog'i osilgan, yurtimiz tadbirkorlari uchun alohida pavilon ajratilgan, tarjimon, huquqiy xizmat, xillas, nimaga ehtiyoj sezilsa, barchasi hozirlangan. Bunday imkoniyatdan foydalananmay bo'ladi.

Prezidentimizning joriy yilgi tadbirkorlar bilan uchrashuvu ham o'zgacha bo'ldi. Nukus shahriga, davlat rahbari bilan uchrashuvuga sohadagi muammolarni, tadbirkorlik rivojidagi to'sqlarni o'ylab, imkon bo'lsa, taklif bildirish istagini bordim. Prezidentimiz hamma tadbirkorlarni qiyayotgan elektr energiyasidagi belgilangan limitdan 20 foizda ortiq bo'lsa-da, bir xil tarifa haq to'lanishini, tablib gazdan foydalishdagi muammolar, yerlarni aksioniga chiqarish va ayrim tadbirkorlarga QQSni qaytarish bo'yicha fikrlarini aytidi. Bizni uzoq vaqtidan buyon qiyana kelgan muammollarga yechim topildi.

Viloyatimizdagi Qo'shrabot, Ishtonxon tumanlari tabiatan uzumchilikka mos yerlar hisoblanadi. Boshqa ekinlar uzum kabi samara bermaydi. Shu bois, bu tumanlarda to'liqligi cha uzumchilikka o'tish, xalqaro bozorda talab yuqori bo'lgan ekinlarni ko'paytirishim kerak.

Korxonamiz misolda oladigan bo'lsak, biz asosan quruq mevalar eksporti bilan shug'ullanamiz. 2023-yilda mahsulot biroz kam bo'lgani uchun 25 nafr ishchi bilan bodom, o'rik, mayiz, kunjut, dukkanli ekinlar va boshqa quruq meva mahsulotlaridan 2-3 ming tonna eksport qildik. Joriy yilda Turkiyadan zamonaev uskuna olib keldik, hosil ham bu yil yaxshi bo'ldi. Yil yakunigacha uch ming tonnadan ortiq mayiz sotishni rejalashtiriyapmiz.

Baxtli YALGASHEV,  
Samarqand shahridagi  
"MEGANUT FOOD DRIED FRUITS  
IMPORT EXPORT LTD" MChJ direktori.



Berilgan ovozlarni bilaturib, noto'g'ri sanash esa 3 yilgacha panjara ortiga "el-tishi" mumkin.

Bundan tashqari, birovning nomidan ovoz berishga sharoit yaratib bergan komissiya a'zosiga jarima belgilandi. Qonunchilikda-gi ushbu o'zgartish "oilaviy" ovoz berish hollarining oldini olishga xizmat qiladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks yangi 51-10 va 51-11-moddalar bilan to'idirildi. Unga ko'ra, saylov bulletenlarini berish tartibini buzish uchun javobgarlik belgilandi.

Ya'ni, ber necha marta yoki boshqa shaxslar nomidan ovoz berish uchun saylov bulletenlarini bergan saylov (yoki referendum) komissiyasi a'zosiga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravarigacha jarima solinadi.

Saylovga ajratilgan mablag'larning maqsadli va

**Birovning nomidan ovoz berolmaysiz**

to'g'ri sarflanishini nazorat qiliш maqsadida Markaziy saylov komissiyasiga saylovda ishtirok etish uchun ajratilgan davlat mablag'lari to'g'risidagi oraloy yoki yakuniy hisobotni taqdim etmagan yoki o'z vaqtida taqdim etmagan, bilaturlib noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etgan siyosiy partiya mansabдори BHМning 5 baravaridan 10 baravarigacha miqdorida jarimaga tortishi belgilandi.

Shuningdek, Jinoyat kodeksining "Saylov yoki referendum tashkil qiliш, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonunchilikni bishish" moddasining dispozitsiyasi yangi tahrirda bayon etildi.

Mazkur moddaga ko'ra, ovoz berishning yashirin-

ligini buzish, saylov yoki referendum hujjatlari qalbakilashtirish, saylov (ovozi berish) bulletenlariga yoki imzo varaqalariga soxta yozuvlar kirish, berilgan ovozlarni bilaturib noto'g'ri sanash uchun esa BHМning 5 baravarigacha miqdorida jarimaga yoki 360 soatgacha majburiy jamaot ishlari jazosi tayinlanadi.

Qayd qilingan holat 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki 1 yillarda 3 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi ham mumkin.

**Furqat ANAROV,**  
**fuarolik ishlari bo'yicha Samarqand shahar sudi sudyasi.**

**Viloyatimizda shunday mahalla bor. Bu yerda deyarli barcha to'yu tomoshalar fuqarolarning o'z xonadonida, milliy qadriyatlarimizga mos shaklda o'tkazilmoqda. Qiziq tomoni, bu mahalla viloyatning chekka bir tumanida emas, balki bir-biridan hashamatli to'yxonalar ko'p bo'lgan Samarqand shahrida joylashgan. Eski shahar qiyofasiga xos tor ko'chalar, zinch joylashgan xonadonlar oralar mahalla fuqarolar yig'ini binosisiga yetib keldik. Bir qarashda bunday sharoitda katta bir nikoh to'yini o'tkazish murakkabroq. Biroq bag'ri kengbekholiklar buning uddasidan chiqyapti.**

**Tashabbus****"Beklar"ning kamchiqim to'ylari**

Mahallaga rais qilib saylashganiga ikki yil bo'ldi, - deydi Abduvoiz Do'stov. - Ishni endi boshlaganimda fuqarolardan biri o'g'lini uylantirmoqchi, ammo, "qo'li kaltaroq" ekanligini aytilib, maslahat so'radi. Shu vaqtgacha to'ylarni qisqartirish haqida ko'p gapirganimiz-u, lekin buni qanday amalg'a oshirish mumkinligi haqida jiddiy o'yab ko'rmagan ekanemiz. Kimdir kamroq mehmon chiqarishni maslahat beradi, boshqasi shahardan tashqaridagi arzonroq to'yxonani gaplash, deydi. Har qanday yo'ni tanlamaylik, barchani rozi qilib bo'lmasdi. Shunda tashabbusni o'z qo'limga olishga qaror qildim.

Rais shahardagi bir nechta bazmgochlarga borib, ulardagi narx-navo, xizmat ko'sratish tartibini o'rgandi. Keyin mahalla faoliyatlari bilan kengashib, uya o'tkaziladigan to'ya ketadijan xarajatini hisoblab chiqdi. Uchga bir Ha, uya o'tkaziladigan to'yning xarajati uchga bir hisobda arzonroq tushar ekan.

Buni to'y boshlamoqchi bo'lgan fuqaroga tushuntirdik, - deydi rais. - U boshida qo'rqi, qarindosh-urug'i, qo'shnilar norozi bo'lishidan, ovoragchilik ko'payishidan xavotir oldi. Men uga to'yning boshida o'zim turishimi aytib, ko'ndirdim. Shunday ham bo'ldi. To'yning boshida turib, kamkarj va eng asosiyi, milliy qadriyatlarimizga mos chiroyli bazm o'tkazidik. Buni ko'rgan boshqalar qaror hamizda yordam so'ray boshladidi.

Bungacha bir qizim va o'g'limning to'yni bazmgohoda o'tkazgaman, - deydi yaqinda ikki o'g'lini uylantirgan Rahmat Namdamov. - Uyda o'tkazilgan to'ya o'shandagi xarajatining yarmini qildim. O'yab ko'rsam, biz to'y berishning asosiy maqsadini unutib qo'yan ekanmiz. Dabdaba, sarpobozlik, oxiriyo'q marosimlar o'zimizga ham yoqmaydi-ku,

mehmonlarga yoqarmidi? Uyda to'y o'tkazib, buni tushunib yetdim. To'yimiz ixcham o'tgan bo'lsa-da, unda butun mahallamiz ishtirok etdi. Maslahat oshi, sabzi to'g'rash, nahorgi oshda qadriyatlarmizni esladik. Ayniqsa, yoshlar juda xursand bo'ldi.

Mahallaning 200 nafariga yaqin fuqarosi xorida, yaxshi daromadli ishlarda ishlaydi. Bunday tashqari, mansabdar va ishbilarmonlari ham ko'p. Dabdaba desang, ko'pchilikdan ortirib qila oladigan shu odamlar mahalla raisiga quloq tutayotgan, isrofgarchiliklarga chek qo'ygani ayniqsa, quvonlar. Kuzatuvlarimizdan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, aksar mahallalarda puldorlar raisini pisand qilmaydi. Uning gapi maslahat sifatida qabul qilinadi.

O'z mahallasiga egalik qila olmaydigan rais lavozimiga nomunosib, - deydi Abduvoiz Do'stov. - Agar barcha hamkasblarim o'zishni bilib qilgani, to'y, marosim va shunga o'xshash boshqa masalalarda muammolar bo'lmas edi. Nazoratni qo'didan berib qo'ydi, endi uni qaytarishimiz kerak. Albatta, faqat qattiqqo'lli bilan ish bitmaydi. Namuna, tashabbus ko'rsatish, mahalla ahlini jipslashtirishni ham bilish kerak. Mahallamizda "yettilik", komissiya a'zolari, faoliyatlari bilan hamjihatlikda ishlaymiz. Aytishim mumkinki, hozir bizda nikoh to'ylari 170 kishi bilan, ixcham dasturxon atrofida o'tkaziladi. Shunday to'y o'tkazganlar ortirigan puliga uy qurdi, mashina oldi.

Har yerning o'z toshu tarozisi bor. Ammo to'ylarni dabdaba va isrofgarchiliklarsiz, muhim, hech kimni norozi qilmasdan ham o'tkazish mumkini ekan. Bekho mahallasining tajribasi buning isboti. Ayni tajribadan boshqa raislar ham foydalansa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

**Asqar BAROTOV.**

**"Alimentdan shikoyat qilaversang, uysiz ham qolasan!"**

Aslida ushbu muammoni tegishli tashkilotlarga xat jo'natib, elga oshkor qilmasdan ham hal qilish imkonibor edi. Tahririyatga kelayotgan aksariyat murojaatlari shu yo'sinda hal etiladi. Bu safargi maktub bir qaraganda oddiyigina aliment to'lamaslik haqda. Bunday murojaatlardan doimiyalar sirasiga kirib qolgan. Lekin undagi ba'zi fikrlar ko'pchilikni hushyorlikka tortar degan xayolda parchalar keltiramiz.



"Meni qiz tug'ding deb har safar kaltaklardi. Hozir to'rtta qizim bor, ular katta bo'lib qolishdi."

Har zamon kelib qolsa, yana kaltaklardi, qizlarimga ham qo'ko'taradi. ZAGSdan o'tmagan-

**Murojaat**

shunday bo'lsayman katta qizim kunlik ishga chiqadi ba'zida. Sizlardan iltimos, aliment pulining o'z vaqtida undirilishida yordam bering, deb D.R. Urgut tumani, Xo'jayduq mahallasi.

Bu oildagi muammolar nikoh rasmiylashtirilmaganidan boshlangan. Keyin ketma-ket bolalar tug'ilgan, ulariga tug'ilganlik guvohnomalarini olimmagan. Ayol kaltaklangan, ammo chidab, salomatligiga putur yetkazib, yana farzand ko'rgan.

**Tahririyatdan.** Mahalla vakillari bilan suhbatlashganimizda D.ning "Ayollar daftari"ga kiritilgani, unga mazkur daftarda belgilangan yordam ko'rsatilgani, farzandlarining tug'ilganlik haqida guvohnoma olishiga ko'mak berilgani aytildi. Bu yordamlar hammasi muammolar ko'zga tashlangandan so'ng ko'rsatilgan. Oiadagi vaziyat esa necha yillarda davomida chigal bo'lib kelmoqda. Ungacha bu oila nahotki hech kimning nazariga tushmag'an bo'lsa?

**SUYUNCHIMI YOKI PORA?**

Yaqinda Alloh farzand ne'mati bilan siyaldi. Tug'ruqxonada ona va bala salomatligiga mas'ul bo'lgan shifokor va hamshiralarga qaralqoq tug'ilishi "suyunchi" so'rashni boshladi. Avaliga pul bermadim, ammo yarim tunda ayolim sog'lig'i yomonlashgani, hech kim xabar olmayotgani va hamshiralarni suyunchi puli so'rayotgani aytdi. Albatta, bu vaziyatda xotinimmnning salomatligini o'yab, shifokor va hamshiralarga pul berdim. O'sha zahoti ularning munosabati o'zgarib, tug'ruqxonadan javob berguncha ayolimdan xabar olib turishdi. Mashrab akaning "Gapishtishga tilim bor, lekin haqqim yo'q..." degan holatini tushundim. Endi o'yab ko'ring, bu porami yoki suyunchi? Deylik, chaqaloq tug'ilganda minnatdorchilik yuzasidan suyunchi berish kerakdir, ammo suyunchini rozi bo'lib, porani og'rinib berganniga farqi bor.

**UCH KUNLIK CHAQALOQQA DABDABA NEGA KERAK?**

Tug'ruqxonalar haqida gap ketganda, chaqaloq tug'ilgandan keyin qilinayotgan dabdababozlik haqida ham to'xtalmaslikning iloji yo'q. Qadimda bi oilda farzand tug'ilganda unga yaxshi ism qo'yish, halol narsalar bilan tanglayini ko'tarish, aqiyqa, ehson qilish, qon chiqarish, daraxt ekish va boshqa shu kabi amallar bajarilgan. Ho'zir-chi?

Bahaybat ayqlar, guldsta ko'targan bolalar, karnay-surnaychilar jamoasi, bezatilgan mashinalar, ularni videoega olayotgan kameralar... Bularning barchasi bitta chaqaloqni tug'ruqxonadan olib chiqish uchun qilingan. Bugun aksariyat tug'ruqxonalar holat shunday. Lekin qolmasan kishi, 3-4 kunlik go'dakka bunday dabdaba kerakmi?

To'g'ri, hammaning orzu-havasi bor, lekin bu orzularning ham chegarasi bo'lishi kerak-ku. Tug'ruqxonaga har xil sharoitdag'i bemor keladi. Kimningdir oиласи o'ziga to'q, bunday dabdabaga qurbi yetishi mumkin. Lekin oramida zo'rg'a kun ko'rayotgan, bitta doriga amallab pul topayotganlar bor, ular pulni qayerdan oladi? Nahotki bu kabi hamsharlari ba'zi odamlarning ko'ngliga tegishini o'ylamaymiz. Aytish jo'zki, bu jarayonda faqat odamlarning emas, balki tug'ruqxonalar mas'ulla-rining ham aysi bo'. Chunki hudduda shunday dabdaba o'tkazishga imkon imkoi berishmoqda va nazoratga olimayapti.

Bu orqali tizimni yoki tibbiyot kodimlarini yomonotliqqa chiqarishdan yiroqmiz. Ammo yuqoridagi kabi holatlar tizimda yo'qligiga odamlarni ishontirish shu soha mas'ullari va tizimda faoliyat yuritayotganlarning vazifasi.



↓ Ta'lim

# ILMIY ISH QILISH OSONMI?

Hayotimizga raqamlashtirishning kirib kelishi ilmiy izlanuvchilarga anchayengillik yaratdi. Ilgari bitta ilmiy-tadqiqot ishi yoki dissertatsiya ishini ilmiy kengashga topshirish uchun haftalab, balki oylab vaqt sarflanardi. Sababi, ozgina kamchiligi bo'lsa ham ilmiy kengash ishni qabul qilmasdi. Bunday kengashlar asosan Toshkentdag'i olyi ta'limga muassasalarini huzurida bo'lgani bois bitta hujjat yoki muhr uchun Samarqanddan Toshkentga borishga ketishga to'g'ri kelardi. Boshqa viloyatdagi ham xuddi shunday muammo qarshisida sarson bo'lardi.

Keyingi yillarda ilmiy kengashlarga hujjatlarni taqdim qilish raqamlashtirildi. Endilikda o'zimizning olyi ta'limga muassasidan ilmiy kotib tonomidan kengashga hujjatlarni elektron yuborish yo'liga qo'yildi. Ilmiy ishini himoya qilgan kodim PhD diplomi ikki-uch haftada olyapti. Ilgari buning uchun olti oy, hatto yillab kutildi.

Shunga qaramay, ilmiy ish qilayotganlar oldida talaygina muammolar mavjud. Masalan, Samarqandda agronomiya yo'naliishlarida ilmiy darajalar beruvchi ixtisoslashgan ilmiy kengash yo'q. Ilmiy ish qilayotganlar Toshkentga, Andijonga yoki Qoraqalpog'istoniga borishiga to'g'ri keladi. Bunday ilmiy kengashlarning eng yaqinini 300 kilometr uzoqligida joylashgan. Bu kabi ilmiy kengashlarni hududlarda ham tashkil etish kerak. Nasib etsa, institutimizda ba'zi yo'naliishlar bo'yicha ilmiy kengash tashkil etilish arafasida. Bu nafaqat Samarqandga, balki qo'shni Buxoro, Qashqadaryo, Jizzax viloyatidagi ilmiy tadqiqot olib boruvchilar uchun ham qo'l keladi. Ilmiy kengashlarni hech bo'lmasa, markaziy hududlarda tashkil etish maqsadga muvofiq.

Ilmiy daraja beruvchi kengashlar jamiyatotlik asosida shakllanadi. Masalan, har bir hududda tashkil etiladigan ilmiy kengashlarga bosqcha hududlardan ham a'zo olinadi. Institutimizning ayrim yetakchi professor-o'qituvchilari ham mana shunday ilmiy kengashlarga a'zo. Ularning borib keleshilari o'zi yoki institut hisobidan qoplanadi. Dissertantini qiyaydigan muammo ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash a'zolaring 65 foizi himoyada ishtiroy etishmasa, kengash himoya ishini ko'rmaydi. Shuning uchun dissertant barcha kengash a'zolaring ishtiroyini tashkil etishga majbur. To'g'ri, kengash a'zolari yig'ish disertantning vazifasini emas, buni ilmiy kotib qiladi. Ammo xohlaymizmiyo'qmi, bu masala dissertantning zimmasiga tushadi.

Aslida bu muammoning yechimi bor. Ilgari ilmiy darajai professor-o'qituvchilarining erishgan yutuqlariga qarab, 30 foizdan 60 foizgacha asosiy ish haqiga nisbatan Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29 dekabrdagi 1030-qarori bilan rag'batlanirish bor edi. Keyinchalik bu narsha obil tashlandi. Hozir ham ilmiy kengash a'zolaring har bir ishtiroyi uchun Nizomga qo'shimcha rag'batlanirish bandi kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shundagina kengash a'zolari keliq-ketish malol kelmaydi. Hamma narsa istaymizmiyo'qmi, molivayi masalalarga borib taqaladi.

Balki xorijiy tajribalarni hayotimizga jalb qilish kerakdir. Bizada odatda ilmiy kengashlar a'zolari 17 nafar atrofida, ilgari 20 nafardan ko'p bo'lardi. Mana shu a'zolaring barchasini yig'ib, dissertant ilmiy ishini himoya qilishi kerak. Xorijda esa ilmiy ishlar 4-5 kishining oldida himoya qilinadi.

Bundan tashqari, keyingi paytda "xishnik" (qaroqchi) jurnallar juda ko'payib ketgan. Ular dissertantning pulini olib, maqolasini o'z saytida chiqarib beradi. Ammo bunday "qaroqchi" jurnallardagi maqolalar Oliy attestatsiya komissiyasi tonomidan tan olinmaydi. Dissertant bilmasdan "xishnik" jurnallarda maqola chiqargan bo'lishi



**Bir necha yillardan buyon "Sa-marqandni gulga burkaylik! 1+10" aksiyasi va "Har bir o'quvchining o'z guli bo'lsin!" yosh gulsevarlar harakati doirasida Samarqand shahar Orif Gulxaniy uy-muzeysi bog'ida tuvaklarda yetishtirilayotgan xonaki gullar, bog' chechaklari va o'simliklari, ularning urug'ları viloyatdagi korxonalar, tashkilot va muassasalar, gulsevar insonlariga tuhfa qilib kelinmoqda. O'tgan muddat ichida "Yashil makon" tadbirleri asosida "Bog'i Gulxaniy"-da parvarish qilingan 800 mingga yaqin flora gullari va ularning urug'i tarqatildi.**

Orif Gulxaniy uy-muzeysi ta'sischisi Muqimjon Oripov Samarqand shahridagi maktablarga 70812 dona gul ko'chatlari va ularning urug'larini sovg'a qildi. Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda viloyat hokimi o'rinosasi Husan To'xtayev, Oliy Majlis Senati a'zosi Farmon Toshev, ta'limga sohasi vakillari, shoir va yozuvchilar qatnashdi.

Tadbirda H.To'xtayev viloyat hokimi Erkinjon Turdimoving minnatdarlik xatin o'qib berdi.

- "Yashil makon" tadbirleri doirasida bir necha yildan beri Muqimjon aka-

## "Har bir o'quvchining o'z guli bo'lsin!"

aksiyasi doirasida maktablarga 70 mingdan ortiq gul va urug' sovg'a qilindi



yetkazib beradigan yashil o'simliklarni sevish, ularni parvarishlash haqida darslar o'taman, - dedi 39-umumiy o'rta ta'limga maktabining biologiya fani o'qituvchisi Feruza Muzrobova. - Maktabimiz gullarga burkangan, bolalar yashil tabiatga do'stona munosabatda bo'ladi. Bugungi aksiyasi doirasida chiroqli gullardan olib ketyapmiz. Buning uchun tashkilotchilarga minnatdorchilik bildiram.

Aksiyasi yoshlar qalibida Vatanga, ona tabiatga, gullar va o'simliklarni olamiga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish, o'zi yashab, o'qib, ishlab turgan muassasa, maskanlarni obodonlashtirish, ko'kalazmalarlashtirish hamda gulzorlar barpo etish maqsadida tashkil etildi.

Xurshida ERNAZAROVA.

**Viloyatda 18 ta kichik va mikro GES barpo etilishi rejalashtirilgan. Shundan 7 tasi "O'zbekgidroenergo" AJ buyurtmachiligidagi, 11 tasi tadbirkorlar tomonidan quriladi.**

**Yil yakunigacha to'qqiz tumanda tadbirkorlar tomonidan 75 MVtli 9 ta kichik foto elektr stansiyalar qurilishi kutilmoqda. Xususan, Toyloq tumanida ularning soni 2 ta va har biri 10 MVt quvvatga ega bo'ladi. Shunday quvvatga (10 MVt) ega foto elektr stansiyalar Samarqand shahri, Toyloq, Payariq, Paxtachi va Urgut tumanlarida ham quriladi.**

## Elektr energiyasi ishlab chiqarish kengayadi

Jomboy, Nurobod va Past Darg'om tumanlarida quriladigan foto elektr stansiyalar 5 MVt quvvatga ega bo'ladi.

Nurobod tumanida "ACWA POWER" korxonasi tomonidan rejalashtirilayotgan 1000 MVt quvvatga ega fotoelektr stansiya qurilishi dekabr oyidan boshlanadi.

Narpay tumanida esa 2025-yilgacha quvvati 200 MVt bo'lgan gaz porsheni elektr stansiyasi barpo etiladi.

Shuningdek, Bulung'ur, Jomboy va Payariq tumanlarida jami quvvati 500 MVt bo'lgan shamol elektr stansiyasi qurilishi rejalashtirilgan. Buning uchun yer maydoni tanlab olinib, 7 ta meteorologik machtalar o'rnatilgan. Machtalar orqali hududdagi shamol kuchi, yo'nalishi va boshqa ma'lumotlar yig'ilib, loyihalashtirish ishlari olib borilmoqda. Qurilish ishlari dekabr oyida boshlanishi ma'lum qilingan.

Bundan tashqari, salkam 17 ming xonadonga jami quvvati 12 MVt bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya qurilimalari qo'yilishi rejalashtirilgan.

Viloyatdagi 260 ta ijtimoiy soha obyektiqa 1,30 MVt elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi quyosh panellari o'rnatiladi.



## Barcha vositalar "fuqarolarga yordam" tizimida



**Davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida amalga oshirilgan tub islohotga ham yetti yildan oshdi. Ungacha holat qanday bo'lganligini bugun ko'pchilik eslagisi ham kelmaydi. Hujjatbozlik, ularni tasdiqlatish uchun eshikma-eshik yurish, mas'ullarning qovog'iga qarab ish bitirishdan barcha charchagan edi. Yangi tartib va qoidalar sohada inson qadrini qaror toptirdi.**

Samarqand shahar davlat xizmatlari markazi tomonidan joriy yilning o'tgan vaqtida fuqarolarga 105 mingga yaqin davlat xizmatlari ko'rsatildi. E'tibor bering, bu bor-yo'g'i 8 oylik ko'rsatich. Uning tarkibiga ID karta (341199 ta), xorijga chiqish pasporti olish (11700 ta) singari murakkab xizmatlar ham kiradi. E'tiborli, fuqarolarga davlat xizmatlariidan foydalanan uchun uyidan chiqmag'an holda, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali buyurtma berish imkoniyati ham yaratilgan.

Markazning o'zida ham barcha vositalar fuqarolarga yordam rejimida ishlashtirilgan. Uning kirish qismida joylashtirilgan elektron navbat apparati odamlarning bir joyda to'planib qolishi, tartibsilklarning oldini oladi. Aholiga quay muhit yaratish maqsadida binoda mutolaa burchagi, bolalar xonasasi, tamaddi qilish uchun shoxobcha tashkil etilgan. Markaz haftaning shanba kuni ham fuqarolarga davlat xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

**Hojabek ISOQOV,  
Samarqand shahar davlat xizmatlari markazi  
katta mutaxassis.**

**REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56**

### DA'VOLAR BO'LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga marhum Qarshiyev Salaydin Obilovichga (2014-yil 7-oktabrdagi vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumanı Chelak sharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.**

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasiga marhum Doniyorov Xasanga (2008-yil 24-oktabrdagi vafot etgan) tegishli mol-mulk

uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand tumani Andijoni mahallasi.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Xalimov Xomida (2017-yil 28-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.**

\*\*\*

### BEKOR QILINADI

Samarqand davlat tibbiyot universiteti diplomdan keyingi ta'limga fakultetidan Ergashov Sarvarjon Boqijonovichga 2022-yil 17-yanvardan 22-fevralgacha xirurgiya mutaxassisligi bo'yicha malaka oshirganchi uchun berilgan qayd raqami 006701, 006112 raqamli sertifikat yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

**Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand Arxeologiya instituti jamoasi tarix fanlari nomzodi Anvar Otaxo'ja-yevga onasi**

**Zariya OTAXO'JAYEVAning vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.**

